

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 1-9 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK TAHLIL QILISH – QISHLOQ XO`JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNING MIHIM BOSQICHIDIR



Kenjayev Toshbolta Aminovich

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: kenjayevtoshbolta@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligiga ta`sir etuvchi omillar o`ziga xos guruhlarga ajratilib, guruhlardagi omillarning o`zaro bog`liqligining korrelyatsion-regression tahlili natijalari yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье выделяются факторы, влияющие на эффективность производства сельскохозяйственной продукции, отражены результаты корреляционно-регрессионного анализа взаимосвязанности факторов в группах.

Abstract: This article highlights factors influencing the efficiency of agricultural production and reflects the results of a correlation and regression analysis of the interconnectedness of factors in groups.

Kalit so'zlar: qishloq xo`jaligi, matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil va modellashtirish, korrelyatsion-regression tahlil, ta`sir etuvchi omillar

Ключевые слова: сельское хозяйство, математическое моделирование, эконометрический анализ и моделирование, корреляционно-регрессионный анализ, влияющие факторы.

Key words: agriculture, mathematical modeling, econometric analysis and modeling, correlation and regression analysis, influencing factors.

1. KIRISH

Jahonda resurslar, xususan tabiiy resurslar tanqisligi kuchaygan bir sharoitda dunyo aholisini ekologik toza va kerakli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlash dolzarblik kasb etmoqda. Aholi faravonligini oshirish, qashshoqlini tugatish, kam daromadga ega bo`lgan aholi daromadlarini oshirishda qishloq xo`jaligi muhim vosita sifatida qaralmoqda[1].

Jahonda qishloq xo`jaligi barqaror rivojini ta`minlash, resurslardan samarali foydalanishning maqbul nisbatlarini aniqlash, mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqaruvni tashkil qilishda ekonometrik usullardan foydalangan holda optimal yechimlarga ega bo`lish, qishloq xo`jaligida mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi prognoz ko`rsatkichlarini ishlab chiqish asosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashga doir ilmiy tadqiqot ishlariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda qishloq xo'jaligiga boshqaruvning zamonaviy usullari, mahsulot ishlab chiqarish bosqichlariga yangi texnologiyalarni joriy qilgan holda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisini turmush faravonligini masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash ushtuvor yo'nalishi bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida, xususan, dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish, suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko'paytirish, meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko'paytirib, eksport salohiyatini 1 mlrd. dollarga oshirish rejalashtirilgan [2]. Natijada, qishloq xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqarishda zamonaviy tadqiqot usullari, ekonometrik modellardan foydalangan holda soha taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2. MAVZUGA OID ADAIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi har bir mamlakatning asosiy tayanch tarmog'i hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi barcha mamlakatlarda ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab, birlamchi ehtiyojlarini qondiradi. Shu sababli tarmoqni rivojlantirish borasida dunyo miqyosida ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishning matematik-statistik modellashtirish uslubiyoti, agrar sohaning iqtisodiy tahlili va ekonometrik modellashtirish hamda optimallashtirish masalalari xorijiy olimlardan K.Makkonnell, S.Bryu, M.Treysi, S.Sanches, R.M.Salou, M.V.Rusing, X.A.Lofgren, E.Krae, G.B. Kleyner, S.A. Smolyak, N.Yu. Vaynshteyn, E.Xedi, D.Dillon, T. Littl, Guan Zhengfei va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

Ekonometrik olim Guan Zhengfeining fikriga ko'ra "qishloq xo'jaligi iqtisodiy tarmoq va albatta, uning rivoji ekonometrik modellashtirish bilan chambarchas bog'liqdir"[3].

MDHga a'zo mamlakatlar olimlaridan O.P. Krastin, A.L.Jelyaskov, V.Bessanov, I.I. Yeliseeva, A.Alekperov, B.I. Smagin, G.Ya.Maryaxin, A.M. Gataulin, G.V. Gavrilov, T.M. Sorokina, M.M. Tuneev, S.A.Andryushenko, Kravchenko R.G., Kashtaeva S.V., Tsvil` M.M., Shumilina V.E., Sinel`nikov V.M., Korsun N.F., Markov A.S., Podashevskaya E.I., Ereshko F.I., Medennikov V.I., Kul`ba V.V., Nosonov A.M., Ivanova I.A., Savkin V.I., Nam M.A., Baydakov A.A., Muratova L.G., Sal`nikov S.G., Gorbachev M.I. V. S. Vajenina, N. F. Korsun, Ye.A.Paxomova, D.A.Pisareva asarlarida qishloq xo'jaligida iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil va modellashtirish, iqtisodiy tavakkalchiliklarni prognozlash kabi masalalar hamda ularning yechimi yoritib berilgan.

N. F. Korsun: "Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning optimal variantlarini izlash, odatda resurs ta'minotiga borib taqaladi"[4], degan fikrni ilgari sursa, S.V. Kashtayeva, "Iqtisodiy-matematik usullar va modellarni qo'llash rejalashtirishning sifatini sezilarli

darajada oshirish hamda ishlab chiqarishda qo'shimcha resurslarni jalb etmasdan qo'shimcha samaradorlikka erishish imkonini beradi" – deb ta'kidlab o'tgan[5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Gulyamov S.S., Shodiev T.Sh., Abdullaev Yo.A., Maxmudov N.M., Berkinov B.B., Begalov B.A., Doschanov T.D., Ruzmetov B.R., Salaev S.K., Abdullaev I.S., Nigmadjanov U., Muxitdinova U.S., Jumaev I.K., Xujakulov X.D., Xo'jaev A.S., Saydaxmedov O.A. va boshqalar ilmiy izlanishlarida ekonometrik modellashtirish, qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirish va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, mavsumiy tebranishlarni prognozlash, xo'jaliklar rivojlanish tendentsiya va istiqbollarni ekonometrik bashoratlashning nazariy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy muammolari tadqiq etilgan.

Iqtisodchi olim O.A.Saydaxmedovning qayd etishiga ko'ra, "ishlab chiqarish muhitida boshqarish faoliyatining asosiy maqsadi – bu, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori foyda olishdir" [6].

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni bajarish jarayonida monografik o'rganish, abstrakt fikrlash, iqtisodiy-statistik tahlil, ilmiy kuzatish, tajribalarni umumlashtirish, ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

4. TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligida biologik va oziq-ovqat xavfsizligi uchun mavjud va kelajakdagi tahdidlarga qarshi turish uchun jamiyat barqaror rivojlanish tamoyillari va chiqindisiz iqtisodiyot modeliga mos keladigan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi agrar iqtisodiyotga muhtojdir.


Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish "aqlli" qishloq xo'jaligiga o'tishga asoslangan. "Aqlli" qishloq xo'jaligi - ishlab chiqarishni integratsiyalashtirish va robotlashtirish, qarorlarni qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari, zamonaviy ekotizimni modellashtirish va dizayn texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini intellektualashtirish, bir tomondan, tashqi resurslardan (agrokimyoviy, noorganik o'g'itlar, yoqilg'i va boshqalar) haddan tashqari foydalanishni qisqartirishga, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqarish omillaridan (organik o'g'it, bioyoqilg'i, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqalar) maksimal darajada foydalanishga imkon beradi[7].

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlariga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi va ularni ma'lum xususiyatlarga ko'ra tasniflash mumkin. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy omillar qishloq xo'jaligining joriy holati va rivojlanish darajasiga qarab turli ta'sirlarga ega bo'ladi. Ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda omillar global, mintaqaviy va milliy darajalarda o'rganilganligi kuzatiladi. Qator tadqiqotlarda qishloq xo'jaligining ilmiy tahlili natijasida asosiy omillar tizimlashtirilgan va guruhlangan. Bunda asosiy e'tibor omillarning soha rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyatiga qaratilgan. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishning taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, barcha tadqiqot ishlarida umumiylik katta ulushni tashkil etadi. Bu tabiiy omillar,

davlatning rag'batlantirishi omili, ilmiy-texnik jarayonlar, raqobatbardoshlik va narx omillari birlamchi omillar sifatida keltirilgan[8].

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar sonining aniq chegarasi mavjud emas. Ba'zi omillar ta'siri ahamiyatsiz bo'lishi yoki ta'sir darajasini aniqlash asoslari mavjud bo'lmasligi, soha rivoji uchun barcha omillarni qamrab olish imkoniyatini kamaytiradi. Shunday bo'lsada, omillarni atroflicha o'rganmaslik, aslida ta'sir darajasi yuqori biror bir omilning ahamiyatsiz yoki asossiz omillar intervaliga tushib qolishiga sabab bo'ladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar guruhini shartli ravishda 8 guruhga ajaratamiz (1-rasm).

Tabiiy omillarga yer maydoni o'zgarishi, meliorativ holati, geografik joylashuvi, ob-havo, xo'jalikning ixtisoslashuvi, xo'jalik yerining aholi punktiga nisbatan joylashuvi, mahsulot hosildorligi, ekologiyaning ifloslanishi omillarini kiritamiz. Biroq bugungi kunda bu omillar bo'yicha statistik ma'lumot asosida ekonometrik tahlili yetarlicha o'tkazilmagan. Ekin va yaylov yer maydoni, qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanilayotgan yerlarning sho'rlanish darajasi, iqlim o'zgarishi, mahsulot hosildorligi, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar statistik manbalari ekonometrik model tuzishda ichki guruhlanishga zarurat sezadi. Chunki, ko'p omilli ekonometrik model qurishda asosiy talablardan biri tanlab olingan erkli omillar orasidagi kuchli bog'liqlik mavjud bo'lmasligi lozim.



Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasidan olingan ma'lumotlar asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsion-regression tahlili o'tkazilganda quyidagi natijalar olindi.

Birinchi guruh omillari bo'yicha belgilashlarni kiritamiz: X_{11} – viloyatdagi jami ekin maydoni (ming ga.); X_{12} - viloyatdagi jami yaylov yer maydoni (ming ga.); X_{13} - mahsulotlar hosildorligining o'rtacha qiymati (ts/ga); X_{14} -viloyatda sho'rlangan yer maydoni ulushi (%); X_{16} -atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar (tonna). Ushbu guruh omillari bo'yicha tanlangan omillar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar

asosida korrelyatsion tahlil amalga oshirildi (1-jadval). Bunda Y_1 - viloyatda ishlab chiqarilgan jami dehqonchilik mahsulotlari hajmi (mlrd. so'm); Y_2 - viloyatda ishlab chiqarilgan jami chorvachilik mahsulotlari hajmi (mlrd. so'm); Y_{12} - viloyatda ishlab chiqarilgan jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (mlrd. so'm).

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra X_{13} va X_{15} orasidagi o'rtacha bog'liqlikni hisobga olmaganda ularning X_{11} , X_{12} , X_{14} omillar bilan bog'likligi kuchli emas, shuningdek, X_{13} va X_{15} omillar natijaviy omil bilan kuchli bog'langan. Shu sababli ularni ko'p omilli empirik model tarkibiga kiritish mumkin. Qishloq xo'jaligida yer asosiy resurs hisoblanadi, shunday bo'lsada yillar davomida ekin va yaylov yerlari maydonining o'zgarishida katta tafovutlar sezilmaydi. Bu tabiiyki, ishlab chiqarish hajmiga katta ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli yuqorida keltirilgan korrelyatsion tahlil natijalari ham mos ravishda buni tasdiqlaydi. Shunday bo'lsada, mantiqan olib qaralsa, yer asosiy resurs sifatida, uning sifati hamda undan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari katta ahamiyatga ega.

1-jadval

Korrelyatsion tahlil natijalari

	X11	X12	X13	X14	X15	Y1	Y2	Y3
X11	1,00							
X12	0,71	1,00						
X13	-0,88	-0,76	1,00					
X14	0,96	0,77	-0,95	1,00				
X15	-0,78	-0,44	0,58	-0,78	1,00			
Y1	-0,96	-0,64	0,90	-0,96	0,80	1,00		
Y2	-0,96	-0,64	0,90	-0,97	0,83	0,99	1,00	
Y3	-0,96	-0,64	0,90	-0,97	0,81	1,00	1,00	1,00

Yerning meliorativ holatini ifodalovchi asosiy parametrlar tuproq turi va tarkibi, sho'rlanish darajasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bilan yerlarning sho'rlanish darajasi orasidagi korrelyatsion bog'liqlik manfiy qiymatga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari manfiylik (teskarilik) darajasi o'ta yuqoridir. Buning asosiy sabablarini o'rganish natijalariga ko'ra yerlarning sho'rlanish darajasi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lishiga qarab mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshib borgan. Natijada yerlarning sho'rlanish darajasidagi o'zgarishning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'siri ahamiyati katta bo'lib qolgan. Buning sababi ushbu omilning ham jarayonga kuchli ta'siri mavjudligini yana bir bor isbotlaydi. Ob-havoning ifloslanishi iqlim o'zgarishlarini ifodalovchi muhim ko'rstakichlardan bo'lib, BMT ning taxminiga ko'ra, 2050-yilga kelib atmosferadagi karbonat angadrid gazining miqdori, elektr stantsiya, sanoat va transportdagi organik yoqilg'i yoqilishning ortishi hisobiga, 50 foizga ortishi kutilmoqda[8].

Ikkinchi guruh omillariga sanoat rivojlanishi, o'rmonchilik, baliqchilik va asalarichilik tarmoqlari rivojlanishi kabi omillar kiradi. Sanoat rivojlanishini qishloq xo'jaligi rivojiga ta'sirini birinchi o'rinda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish

jarayonida resurs ta'minoti bilan bog'lash mumkin. Texnika, texnologiya, yoqilg'i, kimyo va boshqa resurslar ta'minoti qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun muhim ahamiyatga ega. Sanoat rivojlanishi omili qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga texnika, yoqilg'i, kimyo, dori vositalari, qishloq xo'jaligining raqamli qurilmalari va boshqa omillar negizida, ya'ni bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston sanoatining qishloq xo'jaligi uchun zaruriy import qilinadigan resurslar o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lishi, uning ta'sir mezonini hisoblanadi. Ikkinchidan, mamlakat sanoat tarmog'i kengayishi va rivoji qishloq xo'jaligida mehnatni tejash tamoyiliga bevosita katta ta'sir o'tkazadi. Sanoat ishlab chiqarishi tur va miqdor jihatdan kengayishi qishloq xo'jaligini rivojlanlantirish usullarini tanlashda hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

Ikkinchi guruh omillari bo'yicha belgilashlarni kiritamiz: X_{21} - paxta tolasi ishlab chiqarish (ming tonna.); X_{22} - omuxta yem ishlab chiqarish (ming tonna); X_{23} - go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish (ming tonna); X_{24} - sut mahsulotlari ishlab chiqarish (ming tonna). Mazkur omillar bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida korrelyatsion tahlil o'tkazamiz.

2-jadval

Korrelyatsion tahlil natijalari

	X21	X22	X23	X24	Y1	Y2	Y3
X21	1,00						
X22	0,20	1,00					
X23	-0,83	-0,13	1,00				
X24	-0,81	-0,07	0,99	1,00			
Y1	-0,88	-0,37	0,95	0,93	1,00		
Y2	-0,87	-0,40	0,94	0,93	0,99	1,00	
Y3	-0,88	-0,38	0,95	0,93	1,00	1,00	1,00

Mavjud ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalari barcha omillarni paxta tolasi ishlab chiqarish hajmi bilan kuchli manfiy bog'liqligi kuzatilmoqda. Chunki, keyingi davrda paxta ekish maydonlarini qisqatrilishi, uning o'rniga mevasavbazot mahsulotlari yetishtirishni yo'lga qo'yilishi ushbu natijani ta'minlagan. G'o'st va sut mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti yuqori va musbat qiymatga ega bo'lmoqda. Ya'ni bu omillarning jami qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta'siri yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, ushbu omillarni bir vaqtda modelga o'zgaruvchi sifatida kiritish muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli bu omillardan alohida empirik modellashtirish jarayonida erkli o'zgaruvchilar sifatida kiritishimiz mumkin.

Ilm-fan va innovatsion omillar guruhini ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ilg'or xorij tarjibasini o'zlashtirish, qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish va qishloq xo'jaligida ginetika muhandisligini rivojlantirish kabi omillar tashkil etadi. Bu yerda

omillarining natijaviy omilga ta'sirini o'rganishda ularning axborot manbalari mavjudligi va sifatini bilishimiz talab etiladi. Ko'p hollarda yuqorida keltirilgan omillar uchun ishonchli statistik ma'lumotlarni aniqlash muammo tug'diradi.

Bu omillar guruhining ijtimoiy tabiatiga bog'liqdir. Masalan, ilmiy tadqiqot natijalaridan samarali foydalanish omili ko'rsatkichlarini yaxlit nom bilan o'zlashtirib bo'lmaydi. Ilmiy tadqiqotlarning rivojlanish holatini baholashda, bajarilgan ilmiy ishlarning ko'lami va amalda tadbiriq etilish holatini haqqoniy taqqoslash imkoniyati mavjud emas.

To'rtinchi guruh, "Ijtimoiy omillar" guruhida viloyat uy-joy fondi umumiy maydoni o'zgarishi, aholi soni, qishloq xo'jaligida bandlar soni, aholi daromadi o'sish sur'ati, o'rtacha ish haqi miqdori bo'yicha statistik ma'lumotlarga asoslanishimiz mumkin. Bu erkli omillar bo'yicha statistik ma'lumotlar mavjud va ishonchli hisoblanadi.

Korrelyatsion tahlil qilish natijasida barcha erkli omillar natijaviy chiqish omillari bilan kuchli korrelyasion bog'lanishga ega. Bu ko'rsatkichlarning eng kichigi uchinchi erkli omilda kuzatiladi. Natijalarga ko'ra birinchi va uchinchi erkli omillar orasidagi korrelyatsion bog'liqlik nisbatan past bo'lib, bundan ko'rinadiki ushbu omillarni hech birini modelga bir vaqtini o'zida kiritish imkonsiz, ya'ni ularni alohida empirik model qurishda tanlash mumkin.

Beshinchi guruh, "Ta'minot omillari"ga kapital ta'minoti, elektr energetika, mutaxassis, suv, yoqilg'i, kimyo, dori vositalari, mehnat ta'minotlari kiradi.

Kapital ta'minoti respublika byudjeti, korxonalar va tashkilot mablag'lari, tijorat banklari va boshqa qarz mablag'lari, xorijiy investitsiya va kreditlar, boshqa moliyalashtirish manbalari asosida shakllantiriladi. Kapital ta'minoti bilan bir qatorda noqulay ekologik vaziyat va suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligida resurslar va energiyani tejash, yer resurslaridan samarali foydalanish muammolarini

hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu muammolarning O'zbekistonda hal qilinishi qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishning yuqori sur'atlarini va aholi turmush darajasini oshirishni ta'minlaydi.

Oltinchi guruh, "Xizmat ko'rsatish omillari"ga davlat xizmatlari, transport xizmati, telekommunikatsiya xizmatlari, agromaslahatlar xizmati, bank-kredit xizmatlari va boshqalar kiradi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimining rivojlanishi, elektron hukumat tarmoqlari faoliyatini integratsiyalashdagi roli oshishi kabi mezonlarda uning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish rivojiga ta'sirini baholashimiz mumkin.

Transport xizmati tarmoq uchun asosiy xizmat ko'rsatish manbalaridan biri hisoblanadi. Faqatgina yuk tashish faoliyati misolida ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Transport xizmati ishlab chiqarish hajmini optimal realizatsiya qilish jarayonlarida katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning isrof bo'lmasligi hisobiga ishlab chiqarish hajmi qisqarmasligiga, narx rentabellik ko'rsatkichlari pasayib ketmasligiga ham bevosita ta'siri mavjud.

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayoni bu telekommunikatsiya xizmatlarisiz amalga oshirib bo'lmaydigan jarayondir. Bu esa qishloq xo'jaligida raqamli transformatsiyani shakllantirishning zaruriy shartlaridan biridir.

Xizmat ko'rsatish omillari bo'yicha ishonchli statistik manbaga ega omillarni tanlab olib, bu omillarning statistik ma'lumotlari asosida, natijaviy omillar bilan birgalikdagi korrelyatsion tahlilini o'tkazamiz. O'tkazilgan korrelyatsion tahlil natijasida barcha erkli ta'sir omillari natijaviy chiqish omillari bilan kuchli

korrelyatsion bog'lanishga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Erkli omillarning erksiz omillar bilan korrelyatsion bog'liqligi juda katta ekanligi va ular ta'sirini hisobga olish lozimligini asoslasi, erkli omillar orasidagi yuqori bog'liqlik ularni bir vaqtini o'zida o'zgaruvchi sifatida kiritish mumkin emasligini tasdiqlaydi.

Ettinchi guruh, "Huquqiy-me'yoriy omillar"ni qishloq xo'jaligi faoliyatini tartibga solish, sohada ishlab chiqarishni tashkil etish, mulkchilik munosabatlarini belgilab berish, rivojlantirish kontseptsiyasi asosida davlat dasturlarini joriy qilish va boshqalarda kuzatamiz. Bu omillarni alohida biror ko'rsatkich bilan berib bo'lmaydi. Qamrov chegarasi kattaligi bilan yuqoridagi barcha omillar qiymatlanish manbasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, bu omillar ta'sirini tanlangan har bir omil tarkibida mavjud deb xulosa chiqarish mumkin.

Sakkizinchi guruh, "Tasodifiy omillar"ning qishloq xo'jaligi tarmog'iga davriy yoki biror qonuniyat asosida ta'sirini baholab bo'lmaydi. Bu asosan qishloq xo'jaligi tarmog'ining staxostik tabiatini oshiradigan tashqi omillar sanaladi. Misol uchun 2020 yilda kuzatilgan COVID-19 pandemiyasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir doirasini, eksport-importning transchegaraviy muammolari paydo bo'lishi, ishlab chiqarish mehnat resurslari holatiga ta'siri, iste'molchilar talabidagi o'zgarishlar, turli faoliyatlar cheklanishi hisobiga daromad manbalarining ommaviy qisqarishi, davlat byudjetining sog'liqni saqlash tizimiga ko'proq yo'naltirilishi hisobiga byudjet taqsimotidagi o'zgarishlar va boshqalar asosida ko'rishimiz mumkin.

Tabiiy ofatlarning qishloq xo'jaligiga ta'siri bo'yicha ham nodavriylikni kuzatamiz. Toshqinlar, yong'inlar, qurg'oqchilik, zararkunandalar xuruji, qushlar megratsiyasidagi kutilmagan hodisalar va boshqalar tarmoq ishlab chiqarishi uchun doimiy xavf sifatida baholanadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishda samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatish omillari sifatida ehtimolliiy ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Bu ko'rsatkichlar qo'shimcha xarajatlar uchun kapital fondlarida, soliq va soliqqa tortish tizimida, davlat va xususiy sub'ektlar ishlab chiqarish yillik rejasida qarshi kurashish choralarini ko'rish bilan bog'liq moliyaviy kattaliklar sifatida o'z aksini topadi.

5. Xulosa va takliflar

1. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra respublika miqyosida ham viloyat miqyosida ham aynan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularning sabzavot, poliz mahsulotlari va meva yetishtirishdagi ulushini oshirish masalasi o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, chorvachilik tarmog'ida ham fermer xo'jaliklari ulushi pastligicha qolmoqda.

2. Viloyatda ekin yerlari o'zgarish tendensiyasi tahlil qilinganda, ekin maydonlari 1,05 foiziga kamaygan bo'lsada, har bir gektar yerga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori so'ngi o'n yillikda 1,7 barobarga oshganligi kuzatildi. Bunga sabab, respublikamiz

Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yildan boshlab mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi, aholi moddiy farovonligi hamda ma'naviy barkamolligi yuksalishini ta'minlash maqsadida fermer xo'jaliklari tarkibidagi unumdorligi past ekin yerlarni bir qator farmonlari bilan aholiga ajratib berilishidir. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi intensiv ishlab chiqarish hisobidan ta'minlanganligini ko'rsatmoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda intensiv ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratish lozim.

3. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini barqaror o'sish sur'atlari ta'minlangan bo'lishiga qaramasdan, sohalarning mahsulot yetishtirishdagi ulushi ancha beqaror ekanligi aniqlandi. Fikrimizcha, hududda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning uzoq muddatli dasturini mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqish, hududga mos bo'lgan sohalarni rivojini ta'minlash xususan, chorvachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, meva, sabzavot va poliz ekinlari maydonlarini kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

4. Amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko'ra keyingi davrda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi deyarli o'zgarishga ega bo'lmasligi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki, ikkala sohadagi mahsulot ishlab chiqarishning mavjud hajmi hamda nisbati optimal darajaga erishgan va keyingi yillarda ushbu nisbatni saqlab qolish mintaqada qishloq xo'jaligini barqaror o'sishini ta'minlaydi.

5. Modellash natijalari samaradorligini oshirish uchun natijaviy omilga kuchli ta'sir etuvchi ko'p sonli omillarni miqdoriy jihatdan aniqlash talab etiladi. Bunga ta'sir omillari tasnifini takomillashtirish bilan erishish mumkin. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini rivojlantirish va boshqarishning ekonometrik modellarini takomillashtirish uchun birinchi navbatda statistik manbaga ega omillarni aniqlash, shuningdek, taklif etilgan omillar guruhi uchun statistik axborot bazasini yanada kengaytirishga e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/overview>
2. <https://strategy.uz/index.php?category=infog> / "Taraqqiyot strategiyasi" markazi
3. Guan Zhengfei. Econometric analysis of agricultural production: New primal perspectives. Integrating Agronomic Principles. American Journal of Agricultural Economics 88 (2006), in press. <https://edepot.wur.nl/121734>
4. Н. Ф. Корсун, А. С. Марков, М. М. Кондровская. Моделирование и оптимизация в агропромышленном комплексе. Учебно-методическое пособие. Минск : БГАТУ, 2019. – 252 с.
5. Xatamov O.Q., Kenjayev T.A., Raqamlashtirish – qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish omili sifatida. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. №4(12) 2023yil. <http://dgeconomy.tsue.uz/>
6. Saydaxmedov O.A. Agrar sohani boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. –T.: 2012.12 bet
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2020-yil 17-dekabrda gi 794-son qarori.
9. Раджабов А., Вахидов А. Мутахассисликка кириш. О'Ю учун дарслик. ТошДАУ-2016, 271 б.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

